

## AHOLINING DEMOGRAFIK KEKSAYISHI SABABLARI

**Ochilboyeva Sayyora Omil qizi**

*O'zbekiston Milliy universiteti talabasi Iqtisodiyot fakulteti.*

*Aholining keksayishi hozirgi davrda zamonaviy demografik hodisa hisoblanib, garchi uning rivojlanish intensivligi turlichcha bo'lsa-da, barcha mamlakatlar uchun xos bo'lmoqda. Aholining keksayishi umumiy sonida ulug' yoshdagilar ulushining ortishi, yoshlar salmog'inining kamayishi, shu bilan bir vaqtida o'rta yoshdagagi aholi sonining ko'payishida o'z ifodasini topadi.*

Ta'kidlash joizki, aholining keksayishi deganda, nafaqat bu yoshning bu yosh guruhidagi kishilar salmog'ining, balki mutlaq sonining ham ortishi tushuniladi. Aholining qarishi demografik omillarga bog'liq. Asosiy demografik omil aholining takror barpo bo'lish xususiyatidir. Tug'ulishning yuqori, o'lim darajasining pastligi aholi tarkibida bolalar salmog'ining yuqori bo'lishiga sababdir. Aholi tarkibida qariyalar salmog'ining muntazam oshib borishi esa, o'limning kamayishi, aholi o'rtacha umr ko'rish muddatining uzayishi bilan ham chambarchas bog'liq. Aholining qarishi turli mamlakatlarda turlichcha tezlikda kechmoqda. Ammo shunga qaramasdan, bugungi kunda bu dunyo hamjamiyatini tashvishga solayotgan demografik muammolardan biridir.

Butun jahon sog'liqni saqlash tashkiloti keksayishni insonning hayoti davomida kechadigan o'zgarishlarini belgilovchi fiziologik jarayon, deb hisoblashni taklif qilgan. Shu bilan birga, keksalikni kasallik bilan tenglashtiruvchi fikrlar keng tarqalgan. Biz bu fikrni to'g'ri emas, deb hisoblovchilar fikriga qo'shilamiz. Chunki, inson organizmining jismonan qarishi oqibatida kishining tashqi o'zgarishlar va noqulay holatlarga moslashishi susayadi va u tez-tez kasalliklarga chalinadigan bo'lib qoladi. Keksa kishi mehnatga layoqatsiz va o'zgalar yordamiga muhtoj bo'ladi.

Aholi qarish jarayoniga demografik va statistiklar tomonidan XIX asr oxirida o'r ganilgan. Sobiq Sovet Ittifoqida A.Y.Boyarskiy, J.Burjua, Fransiyada A.Sovi, AQSHda E.Koul va yana bir qator statistik olimlar aholining qarishi bilan bog'liq masalalarda shug'ullanishgan.

Aholining demografik keksayishi bir qancha sabablarga ko'ra yuzaga keladi. Ularning asosiyлари quyidagilardan iborat:

1. Umr ko'rish davomiyligining oshishi: Tibbiyat va sog'liqni saqlash sohasidagi yutuqlar, kasalliklarni davolash va oldini olish usullarining takomillashuvi keksalarning umr ko'rish davomiyligini oshiradi.
2. Tug'ilish darajasining pasayishi: Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda tug'ilish darajasi pasymoqda. Bu, o'z navbatida, yosh avlodning kamayishiga va keksalar ulushining ortishiga olib keladi.

3. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish: Ijtimoiy va iqtisodiy farovonlik, ta'lif darajasining oshishi, ayollarning ish bilan bandligi va oilaviy rejalashtirishning yaxshilanishi tug'ilish darajasini pasaytiradi va keksalarning ko'payishiga olib keladi.

4. Migratsiya jarayonlari: Yosh avlodning migratsiyasi va keksalarning qishloq joylarda qolishi aholi tarkibida keksalarning ko'payishiga ta'sir qiladi. Yoshlar shahar joylarga ko'chib ketganda, qishloqlarda keksalar soni ortadi.

5. Ijtimoiy va madaniy omillar: Keksalarga nisbatan ijtimoiy munosabatlar, madaniy qadriyatlar va oilaviy an'analar ham aholi tarkibidagi keksalarning ko'payishiga ta'sir qiladi.

6. Sog'liqni saqlash tizimining yaxshilanishi: Sog'liqni saqlash tizimining rivojlanishi, keksalarga ko'rsatiladigan xizmatlarning sifatini oshirishi va ularning hayot sifatini yaxshilashi keksalarning ko'payishiga olib keladi.

Bu omillar birgalikda aholi tarkibida keksalarning ulushining ortishiga sabab bo'ladi va demografik keksayishni keltirib chiqaradi.

Aholi migratsiyasi ham aholi qarishiga o'ziga xos ta'sir etadi. Aholi qarishi ikki turda namoyon bo'ladi:

1. Tug'ulishning qisqarishi hisobiga qarish ("quyidan qarish").

"Quyidan qarish"- bu tug'ulishning qisqarib borishi natijasida aholining yosh tarkibida bolalar salmog'ining kamayib, qariyalar salmog'ining esa ortib borishi.

2. Tug'ulishning qisqarishi sharoitida aholi o'rtacha umr ko'rish muddatining uzayishi va o'limning kamayishi hisobiga ("yuqoridan qarish").

"Yuqoridan keksayish"- bu tug'ulishning kamayishi sharoitida keksa yoshdag'i aholi o'rtasida o'limning qisqarishi, tug'ilganda kutilayotgan hayot davomiyligining uzayishi hisobiga qariyalar salmog'ining ortib borishidir.

Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti mutaxassislari tomonidan global qarish muammosiga oid o'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, keksa aholining demografik yuki rivojlangan mamlakatlarda o'sib bormoqda, eng yuqori ko'rsatkichlar Yaponiya va Evropada kuzatilmoqda. Aholining qarishi iqtisodiyotning ko'plab tarmoqlarida, xususan, sog'liqni saqlashda kadrlar etishmasligiga olib kelmoqda. empirik hisob-kitoblar qariyalar ulushi yuqori bo'lgan mamlakatlarga immigrantlar oqimi qariyalarning qaramlik yukini 2,4 foiz kamayishiga, shuningdek, aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotning 4,6 foizga o'sishiga olib kelishini ko'rsatmoqda.

O'zbekistonda keksa yoshdag'i aholining demografik yuki har 100 mehnatga layoqatli aholiga 7 kishini tashkil etadi, bu jahondagi o'rtacha ko'rsatkichdan past va hatto 2035-yilgi prognozlarda ham umumjahon o'rtacha ko'rsatkichlaridan past bo'lishi kutilmoqda. O'zbekiston demografik dividend olish bo'sag'asida turibdi va jahon mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash uchun yaxshi salohiyatga ega.

Aholining keksayish darajasining me'zoni uch bosqichga bo'linadi:

- 1-bosqich. Aholining qarish indeksi 20 % dan kam, aholining qarish darjasasi esa past hisoblanadi.

- 2-bosqich. Aholining qarish indeksi 20-30% , aholining qarish darajasi esa o'rta hisoblanadi.
- 3-bosqich. Aholining qarish indeksi 30% dan yuqori, aholining qarish darajasi esa yuqori hisoblanadi.

BMT demograflari aholining keksayish darajasini baholash uchun keksalik yoshining boshlanish chegarasini asos qilib olgan va unga ko'ra, aholining yosh tarkibida 65 va undan yuqori yoshdagilarning ulishi 4% dan kam bo'lsa - demografik yosh, 4-7% bo'lsa - keksayish bo'sag'asida, 7% dan oshsa hudud aholisi demografik qari hisoblanadi. Agar dunyo mamlakatlarini ushbu tasnif bo'yicha guruhlarga ajratsak ushbu holatni ko'rishimiz mumkin:

- 61 ta mamlakat aholisi demografik qari;
- 58 ta mamlakat aholisi demografik qarish bo'sag'asida;
- 73 ta mamlakat aholisi demografik yosh;
- 23 ta mamlakat aholisi haqida ma'lumot yetarli emas<sup>1</sup>.

O'zbekistonda ushbu ko'rsatkich 2022- yilda 5,4 % ni tashkil etgan va bu O'zbekistonning aholisi demografik qarish bo'sag'asida hisoblanadi.

Aholining demografik keksayishi sabablaridan kelib chiqqan oqibatlari:

#### 1. Iqtisodiy ta'sirlar:

Mehnat bozorida o'zgarishlar: Keksalar sonining ko'payishi mehnat bozorida ish kuchining kamayishiga olib kelishi mumkin, bu esa iqtisodiy o'sishni sekinlashtirishi mumkin.

Pensiya va ijtimoiy ta'minot tizimiga bosim: Keksalar sonining ko'payishi pensiya tizimiga va ijtimoiy xizmatlarga bosim o'tkazadi, chunki ko'proq odamlar pensiya oladi va sog'liqni saqlash xizmatlariga ehtiyoj sezadi.

#### 2. Sog'liqni saqlash tizimiga ta'sir:

Sog'liqni saqlash xizmatlariga talabning oshishi: Keksalar ko'proq tibbiy yordamga muhtoj bo'lib, bu sog'liqni saqlash tizimiga qo'shimcha yuk keltiradi.

Keksalarning kasalliklari: Keksalarga xos kasalliklar (masalan, yurak-qon tomir kasalliklari, diabet) ko'payishi sog'liqni saqlash tizimida yangi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

#### 3. Ijtimoiy o'zgarishlar:

Oila tuzilmasida o'zgarishlar: Keksalar ko'payishi oila tuzilmasini o'zgartirishi mumkin, masalan, keksalar bilan birga yashovchi oilalar ko'payishi mumkin.

Ijtimoiy izolyatsiya: Keksalar ko'pincha ijtimoiy izolyatsiyaga uchraydi, bu esa ularning ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

#### 4. Siyosiy ta'sirlar:

Siyosiy ishtirok etish: Keksalar ko'proq saylovlarda ishtirok etishi, ularning ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga oladigan siyosatlarni talab qilishi mumkin.

<sup>1</sup> Медков В.М. Демография. Учебник. -М.: Инфра, 2004. – С.134

Aholi siyosati: Keksalarning ko'payishi davlat siyosatida yangi strategiyalarni ishlab chiqishni talab qiladi, masalan, keksalar uchun ijtimoiy xizmatlar va yordam dasturlarini kengaytirish.

Umuman olganda, aholi demografik keksayishi ko'plab sohalarda muammolar va yangi imkoniyatlar yaratishi mumkin, shuning uchun bu jarayonni yaxshi tushunish va unga tayyorlanish muhimdir.

Shunday qilib, aholining keksayishi aholi tarkibida qariyalar ulushining ortishi hisobiga kelib chiqadi va mazkur muammoga duchor bo'lgan har bir mamlakat o'z iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda keksalarning turmush farovonligini oshirishga harakat qilmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Q.Abdurahmonov, X.Abduramanov.: Demografiya. 2011-y. -S.92.
2. Tojiyeva.Z.N. O'zbekiston aholisi. Monografiya. -T.: Fan va texnoligiya, 2010.
3. Medkov V.M. Demografiya. Uchebnik. -M.: Infra, 2004. -S. 134.
4. Demografiya.uz milliy portal.